

Xurramov Rustam Sayfiddinovich,
Termiz davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lif"
kafedrasi tayanch doktoranti

EVRISTITIK TOPSHIRIQLAR BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

УО'К: 373.3.015.31
DOI: 10.34920/SO/VOL_2023_ISSUE_1_6

XURRAMOV R.S. EVRISTITIK TOPSHIRIQLAR-BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Barchamizga ma'lumki, evristik topshiriqlar berish orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish bugunning davr talabi. Hozirgi davr pedagogikasining ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan konseptual ilmiy izlanishlar predmetini kichik maktab yoshidagi bolalarda kreativlik, yanada aniqrog'i ijodiylikning yorqinlashuvi, ixtirochilikka qiziqishi, ertak, hikoya, qo'shiq, musiqaning obrazli mazmunini tezda idrok etishi, ijodiy imkoniyatlarini nazarda tutib belgilanmoqda. Mazkur maqolada ham evristik topshiriqlar berish orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish vositalari haqida so'z boradi. Mazkur maqoladan oliv o'quv yurti talabalari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda keng auditoriya foydalanishlari mumkin.

Tayanch so'z va tushunchalar: ta'lif, kreativ, rivojlantirish, qobiliyat, produktiv, reproduktiv, topshiriq.

ХУРРАМОВ Р.С. ЭВРИСТИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Как известно, развитие творческой активности учащихся путем постановки эвристических заданий является требованием сегодняшнего дня. Предмет современной педагогики деятельности-творческого концептуального научного исследования определяется с точки зрения творчества, точнее, яркости творчества, интереса к изобретательству, быстрого восприятия образного содержания сказок, рассказов, песен, музыки, творческих возможностей у детей младшего школьного возраста. В данной статье также говорится о средствах развития творческой активности учащихся путем выдачи эвристических заданий. Данная статья может быть использована студентами вузов, докторантами, независимыми исследователями и широкой аудиторией.

Ключевые слова: воспитательный, творческий, развитие, способность, продуктивный, репродуктивный, назначение.

KHURRAMOV R.S. HEURISTIC TASKS - A TOOL FOR DEVELOPING THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION

As we all know, developing the creative activity of students by giving heuristic tasks is the demand of today. The subject of modern pedagogy of creative activity-oriented conceptual scientific research is defined in terms of creativity, more precisely, the brightness of creativity, interest in inventiveness, quick perception of the figurative content of fairy tales, stories, songs, music, and creative possibilities in children of junior school age. This article also talks about the means of developing students' creative activity by giving heuristic tasks. This article can be used by university students, doctoral students, independent researchers and a wide audience.

Key words and concepts: educational, creative, development, ability, productive, reproductive, assignment.

Kirish. Dunyoda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini tashkil etish, kichik mакtab yoshidan o'quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularning qobiliyati, axloqiy va estetik hissiyotlarini tarbiyalash, o'qishga qiziqishi, xohish va istagini, o'zi va o'z atrofini o'rab olgan olamga hissiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan o'quv tuzilmalarini ishlab chiqish, o'quvchining intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi pedagogik texnologiyalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi davr pedagogikasining ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan konseptual ilmiy izlanishlar predmetini kichik mакtab yoshidagi bolalarda ijodiylikning yorqinlashuvi, ixtirochilikka qiziqishi, ertak, hikoya, qo'shiq, musiqa-ning obrazli mazmunini tezda idrok etishi, ijodiy imkoniyatlarini nazarda tutib belgilanmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'lidan boshlab o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiya-sida «o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'limgarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli

va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish»¹ kabi muhim vazifalar belgilangan.

Ijodiy faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama uyg'un rivojlantirishning muhim omili sifatida ularning axloqiy, aqliy va jismoniy jihatdan taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Aynan ijodiy faoliyatga samarali tayyorlangan o'quvchilar iqtidorlilikning quyidagi mezonlariga javob beradi: aqliy rivojlanishning jadalligi: bilishga qiziqish, kuzatuvchanlik, nutq, onglilik, nostonart fikrlash; qiziqish, intellekt, emotsiyalarning erta ixtisoslashuvi: matematika, musiqa, tasviriy faoliyat, injenering, chet tillarni o'rganish; bilish faolligi, tashabbuskorlik, tashkilochilik qobiliyati, qat'iylik, qo'yilgan maqsadga erishishga intilish; amaliy faoliyatga tayyorlik va qobiliyatlilik.

Ijodiy jarayon o'zida ikkita muhim belgini aks ettiradi. Ulardan biri – intuitsiya (zehn, fahm-farosat), ikkinchisi – intuitiv fikrlash jarayonida qo'lga kiritirilgan natijani rasmiylashtirishdir. Faqat uning samarasi anglangan va intuitiv va mantiqiy fikrlash birligi sifatida mantiqiy fikrlash vositasida ishlab chiqilganlik bilan tavsiflanadi. Ijodiy jarayon turli darajada insonning ijtimoiy tashabbuskorligining barcha ko'rinishlari, asosan, uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq shakllarida mutlaq o'z aksini topadi.

Mavzuning dolzarbliği. Didaktik yondashuvlarga ko'ra ta'lim metodlari uchta guruhgabοlinadi:

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясini тасдиқлаш тұғрисида"ги ПФ-5712-сон Фармони. – Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.

- o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish metodlari;
- o'qishga rag'batlantirish va motiv uyg'otish metodlari;
- o'quv-biluv faoliyatining samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Yuqorida keltirilgan har bir guruhga mansub metodlar muayyan ta'lif usullarini o'z ichiga oladi. Masalan, o'quv-biluv faoliyatini (birinchi guruh metodlari) tashkil etishda og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llaniladi. Bu esa o'qituvchi tomonidan o'quv axborotlarini taqdim qilish va o'quvchilar tomonidan eshitish, kuzatish, amaliy xatti-harakatlar vositasida idrok etilishini ta'minlaydi.

Mutaxassislar ikkinchi guruhdagi metodlar sirasiga bilish o'yinlari, bahs-munozara, rag'batlantirish va boshqalarni, uchinchi guruhga esa og'zaki, yozma, laboratoriya ishlari, yakka va yalpi nazoratni kiritganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, amaliyotda ko'plab ta'lif metodlari qo'llaniladi. Biz tadqiqotimiz davomida yuqoridagi birinchi va uchinchi guruhlarga o'xhash, lekin ulardan kengroq bo'lgan ta'lif metodlari tasnididan foydalandik.

Dastlabki tasnifda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining shakllari namoyon bo'ladi. Biz tahlil qilayotgan uchinchi guruhga mansub metodlar ushbu faoliyat mazmunidan kelib chiqadi.

Ma'lumki, pedagogik jarayonning mazmuni va shakllari o'zaro bog'liq bo'ladi. Shuning uchun jarayonning mohiyatini faqatgina uning mazmuni va shaklini hisobga olgan holda tus hunish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, ta'lif metodlarini ta'riflash va tarkiblashda o'qituvchi-o'quvchi faoliyatining mazmuni va shakllari mutanosibligiga e'tibor qaratish lozim.

Ta'lif metodlari - voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, pedagogik bilmalarni yaratish va asoslash usuli.

Ta'lif metodlarining mohiyati to'g'risida bir nechta qarashlar mavjud. Metodlarni tasniflashda turlicha yondashuvlarning mavjudligiga ishonch hosil qildik.

Ta'lif metodlari tizimida og'zaki mashqlarning o'rnini aniqlar ekanmiz, ikkita tasnifga asoslandik:

- bilim manbalariga ko'ra qo'llaniladigan metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlar;
- faoliyat xarakteriga ko'ra qo'llaniladigan metodlar: illyustratsiyali tushuntirish, reproduktiv, evristik, muammoli ifodalash, tadqiqotchilik usullaridan foydalangan holda o'quvchilarga taqdim etish¹.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

O'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamolga yetkazish uchun ularni boshlang'ich sinflardanoq ijodiy faoliyatini kamol toptirish zarur. CHunki boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning didi, dunyoqarashi, salohiyati barcha psixik jarayonlar individual-psixologik xususiyatlari jadal shakllanadi.

Psixolog olimlar S.L.Rubinshteyn, B.G.Anayev birinchilar qatorida umumiyligi, aqliy rivojlanish umumiyligi intellekt bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tdilar. Masalan, B.G.Ananev murakkab psixik xususiyatlarni tadqiq qilish bilan birga, o'qish va mehnatdagi muvaffaqiyat ana shu xususiyatga bog'liqdir², -degan farazni ilgari suradi. Olim bu kategoriyalarni bilishga oid turli vazifalarning qo'yilishi va hal etilishi bilan bog'liq yo'llarini ko'rsatib beradi. Keyingi yillarda muammoni turli yo'nalishlarda intensiv tarzda tadqiq etishga qiziqish uyg'ondi. Bu tadqiqotlar borasida N.S.Leytesning, tadqiqotini qayd qilib o'tish muhim. N.S.Leytes³ avvalo aql sifatlarini o'z ichiga oluvchi umumiyligi aqliy qobiliyatlar(garchi ular jiddiy rivishda iroda va emotsiyonal xususiyatlarga bog'liq bo'lsa ham) odamning nazariy bilish va amaliy faoliyat imkoniyatlarini xarakterlab beradi,-deb ta'kidlagan. Odam intellekti uchun eng muhim narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni aks ettirish hamda shu bilan voqelikni ijodiy ravishda qayta o'zgartirish imkoniyatini beradi. N.S.Leytesning, ko'rsatishicha, oliy nerv faoliyati xususiyatlarida faollik va o'z -o'zini tartibga solishning ayrim shart-sharoitlari yashiringan bo'lib, bular umumiyligi aqliy qobiliyatlarini tarkib topishining

¹ Хуррамов Р. (2022). Оғзаки машқлар ёрдамида бошлангич синф ўқувчилари эвристик фикрларини ривожлантиришнинг методик асослари. "Ta'lif va innovatsion tadqiqot". <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.022>

² Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – М.: 1969. - 73 С.

³ Лейтес Н.С. Склонности одаренность в детские годы // Знание, 1984, № 4.28 С.

muhim ichki shartlaridan biridir. Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo'limgan vazifalarni hal qilishda, aqliy chandalashning (topqirlikning) tezligi;
- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'limgan narsadan muhimini ajrata bilish.

U.Nishonaliyev aqliy rivojlanishning asosiy mezoni-to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati tuzilmasining (tarkib topgan o'quv faoliyati) hamda uning tarkibiy qismlarining to'g'ri rejalshtirilishidir - degan g'oyani ilgari suradi¹.

O. Hasanboeva kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning fikrlash faoliyatining quyidagi xususiyatlari: o'zlashtirishning tezligi yoki sustligi; fikrlash jarayonining o'zgargan sharoitlarga moslashtirish osonligi yoki qiyinligi; fikrlash doirasining o'zaro bog'liqligi; analitik-sintetik faoliyatning turli darajalari sifatida qaraydi².

Ijodiy faoliyatda muammoli vaziyatlar yaratish bu muammoli vaziyatlarni echishga o'quvchilarni jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda shaxsni rivojlantrishga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi.

1. Maktab o'quvchilari shaxsini rivojlantrish, uning qobiliyati, o'qishga qiziqishi, xohish va istagini shakllantirishi;

2. Axloqiy va estetik hissiyotini tarbiyalash, o'zi va o'z atrofini o'rab olgan olamga hissiy munosabatni shakllantirish.

3. Bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalar, faoliyatning turli shakllarini egallab olish.

4. Bolalarning jismoniy va psixik salomatligini muhofaza qilish.

¹ Нишаналиев У. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. – Т.: Фан, 1990. – 85 с.

² Ҳасанбоева О., Ҳасанбоев Ж. ва б.қ. Педагогика. – Т.: Фан, 2006. - 97 6.

5. Bola shaxsining individualligini himoya qilish³.

Zero, ta'lif faol, ijodiy, mahsuldor, intellektual faoliyatni o'zaro aloqadorlikda amalga oshiradi. Ijodkorlik boshlang'ich ta'limda o'qituvchi faoliyatining asosiy turi bo'lishi zarur.

Pedagogik o'yinlar aynilsa, o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantrishda muhim o'rinn tutadi. Aynan shunday o'yinlar vositasida kattalar va kichiklar o'rtasida muloqot o'rnataladi. Bu muloqotlar shaxsiy yondashuv asosida qurilishi kerak. O'qituvchi bolani faqat o'quvchi deb emas, balki bir butun shaxs, o'ziga xos inson deb yondashuvi lozim. O'yinlarda bolaning shaxsiy sifatlari boyib, o'quvchilar ijodiy faoliyatlarini tashkil etishda muhim o'rinn tutadi hamda o'quvchilarning xulqidagi ijobiy qirralar rivojlanadi, ijobiy tasavvur mashqlari vositasida kuzatuvchanlik, xotira, diqqatni kuchaytirish imkonini tug'iladi, psixologik to'siqlar bartaraf etiladi⁴.

Maqsad. Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aql-idrogi, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvliligi, esda saqlab qolish, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantrishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi; bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. O'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'llullanish niyati, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy, ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

O'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarni eslab qolishi uchun muayyan intilishni tarkib topishi, ularga eslab qolishning fikr yuritish yo'llarini (taqqoslash, tahsil qilishni) o'rganishdan iboratdir.

Bu vazifani eng avvalo maktab psixologlari qatorida boshlang'ich sinf o'qituvchilari amalga oshirishlari shart. Tafakkur atrof-muhitdagi

³ Хуррамов Р. (2022). Оғзаки машқлар ёрдамида бошланғич синф ўқувчилари эвристик фикрлашини ривожлантиришнинг методик асослари 'Ta'lim va innovatsion tadqiqot'. <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.022>.

⁴ Болтаева Ш.Т. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини шакллантириш. Монография. – Тошкент: 2013. - 28-6.

voq'elikni nutq yordami bilan bevosita umum-lashgan holda aks ettiruvchi jarayon.

Xotiraning mahsulorligini oshirish uchun ta'lif jarayonida o'zini -o'zi nazorat qilish, o'r ganilgan materialni takrorlash orgali tek-shirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa, ular materiallarni bevosita takrorlashda uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Lekin o'quvchilar materiallarni eslashni xush ko'r maydilar va uni osongina tiklash yo'lini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'shining garovidir.

Maqolaning ilmiy mohiyati. Hozirgi davrda psixologlar ta'lif jarayonida o'quvchilarda faol mustaqil ijodiy faoliyatni mustaqil bilish faoliyatiga, mustaqil holda bilimlarni egallashga yo'naltirishga harakat qilmoqdalar.

O'quvchilarning bilish faolligini maksimal darajada faollashtirish, ularning mustaqil ijodiy tafakkurini rivojlantirish mакtab ta'luming muhim vazifasiga aylanib bormoqda.

Ta'luming asosi - o'qitishning yetkazadigan mo'l - ko'l axborotni esda saqlab qolish emas(garchi bu muhim vazifa bo'lsa-da), balki bu axborotni qabul qilish jarayonida o'quvchilarning o'zları faol ishtirok etishi, ularning mustaqil bilim olish qobiliyatini asta-sekin shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim¹.

Bugungi kunda pedagog olimlar L.S.Vыgotskiy tomonidan ilgari surilgan g'oya, ya'ni "ta'lif berish o'quvchi qo'lga kiritib bo'lgan rivojlanish darajasini qo'llamasdan, o'quvchining tafakkuriga uning imkoniyatlarini birmuncha oshiradigan talablar qo'yilishi, u erishgan va yaxshi o'zlashtirib olgan analitik-sintetik faoliyat darajasini talab qilishi kerak", degan qoidaga asoslanadilar. L.S.V'yotskiy ta'luming aqliy rivojlanishidagi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayanmog'i lozim-deb hisoblagan edi². Ta'lif rivojlanishning faqat tugullangan darjasini asosida qurilmasdan, avvalo unchalik tarkib topmagan va shunday ta'lif ta'siri aso-

sida taraqqiy etgan narsalarga tayanmog'i lozim. L.S.V'yotskiy boladagi aqliy rivojlanishning ikki darjasasi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Birinchi daraja, ya'ni aytganidek, aktual rivojlanish darjasasi o'quvchi tayyorgarligining mavjud darjasasi bo'lib, u o'qituvchining topshirqlarni to'la mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi. Ancha yuqori bo'lgan ikkinchi daraja (V'yotskiy uni eng yaqin rivojlanish zonasini deb atagan) bolaning nimani mustaqil bajara olmasligini, lekin ozroq yordam bilan (yo'l yo'riq beruvchi savollar, aytib berishlar, ishora qilishlar) umumiyoq ko'rsatmalar ta'lif jarayonida aktual rivojlanish darjasiga o'tadi-deb ta'kidlagan edi.

Tahsil va natijalar. Ta'lif-tarbiyaga yangicha yondashuv, dars samaradorligini oshirish vositalasi, fanlararo aloqalarning yangi sifat darajasiga ko'tarilgan shakli hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lifda yangicha yondashuv hayotdagi turli xil hodisalarini bir qolipdan turib baholash emas, balki ularni o'zaro aloqadorlikda kompleks holda yondashishga yo'naltiradi. Masalan, integratsiyalashgan ta'lifni yo'lga qo'yishda sof ilmiy bilmilar, adabiyot, musiqa, san'at yordamida har tomonlama mukammal ko'rsatib berish imkonini tug'iladi. Bu esa bola shaxsining emotsiyaligini axloqiy rivojiiga, unda ijodiy tafakkurning shakllanishiga yaxshi ta'sir ko'rasatadi.

Boshlang'ich sinflarda mavzuga integratsiyali yondashuvni bir dars emas, balki mazmuni, metodik va tashkiliy tomonidan o'quv fanining ma'lum bo'limi olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda o'quvchilarda aqliy qibiliyatning rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning va shaxslik xislatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish ularning turli o'quv-biluv, amaliy, ijtimoiy faoliyatlarini tajribasiga tayaniladi. Shuning uchun ha ta'lif standartlarida ta'luming faol, amaliyotdagi mazmuni, faoliyatning aniq vositalariga real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan bilim, malaka va ko'nikmalarga alohida e'tibor berilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilish faolligi o'zida yangi bilimlarni o'zlashtirishga barqaror motivlar va bilish jarayoniga ijobjiy emotsiyaligini yo'nalganlikning qaror topganligi, o'quv vazifalarini hal etishda odatiy o'quv hara-

¹ Болтаева Ш.Т. Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини шакллантириш. Монография. – Тошкент: 2013. – 26-б.

² Аナンьев Б.Г. Человек как предмет познания. – М.: 1969. – 46 С.

kati usullarini bartaraf etishga intilish, muammo yechimini topishning nostandard metod va usullarini izlash, o'quv-bilish faoliyatidagi qat'iylik, ijodiy bilish faoliyatining natijaviyligi bilan tavsliflanichi shaxs xususiyatini o'zida aks ettiradi.

Ta'limgarayoni o'quvchilar faoliyatini tizimli tashkil etishni taqozo etadi. Ta'limgarning barcha tarkibiy qismlari uning o'quvchi faoliyatini tizimli tashkil etish - bu ta'limga maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, ta'limga mahsuli, bilim, ko'nikma va malakalarning o'zaro aloqasida amalga oshadi.

Faoliyatning rivojlanishi ta'limganda ma'lum didaktik prinsiplar asosida yuzaga keladi. Bular ilmiylik, uzviylik, tizimlilik, qulaylik, ta'limganda faoliyk, onglilik kabilardan iborat bo'lib, ta'limga tizimi-dagi nuqsonlarni bartaraf etib, unda o'zgarishlar qilishni taqozo etadi.

Ta'limga mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hisi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan namoyon bo'ladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istagi, ehtiyojini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi, rag'batlantirish va jazolash me'yorida bo'lsagina, ularning tarbiyaviy ta'siri ortadi.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hisi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o'quvchining bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql-idrok sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon, hatto donishmand inson deb biladi. O'qituvchi siyemosida o'zining ezgu niyati, orzu istagi, ajoyib his-tuyg'ularini ro'yobga chiqaruvchi mo'tabar shaxsni ko'radi. O'qituvchining obrusi oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o'qituvchisining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar¹.

Ta'limgarayonida o'qituvchi o'zining obro'sidan oqilona va omilkorlik bilan foydalananib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatse-

varlik, o'qishga ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarni shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llash kerak.

Ta'limgarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvurlari fikr yordamida muayyan vogelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi obrazlar ijodiy izlanishning eng muhim omili-ijodiy tasavvurni takomillashtiradi. Ijodiy tasavvur eng muhim xususiyatlardan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolligi, manтиqiy qonunlarga uzviy bog'liqligi, g'ayri tabiiy, ajoyib-g'aroyib istaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o'quvchi tasavvurida turmushga, voqelevlikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar holati tobora kengayadi. Bu esa o'quvchilar hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada u taassurot qurshovidan qutuladi. Yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko'nikmasi yanada takomillashadi².

Boshlang'ich ta'limgarning o'ziga xos xususiyati ham bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi ijtimoiy tajribasi psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligi bilan farqlanishidadir. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'limganda har bir o'quvchining ijodiy faoliyatini va uning o'ziga xos individualligini namoyon etishga sharoit yaratishdan iboratdir.

Tahlil natijalari asosida boshlang'ich ta'limga o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishning quyidagi mezonlari aniqlashtirildi: motivatsion-emotsional, irodaviy, kognitiv, faoliyatli-ijodiy. Motivatsion-emotsional mezon ko'rsatkichlari: faoliyatda ishtirot etish istagi, onglilik, ko'proq bilishga intilish, ijobiy emotsional qayg'urish, ishtiyoq, faoliyatdan qoniqish hisi. Irodaviy mezon ko'rsatkichlari: qat'iylik, bilishga yo'nalganlik; jur'atlilik. Bilishga doir mezon ko'rsatkichlari: mo'tadillik, moslashuvchanlik, ishchanlik, fikrlashning individual o'ziga xosligi. Faoliyatli-ijodiy mezon ko'rsatkichlari: jadallik, ijodiy bilish faoliyatining natijaviyligi.

¹ Болтаева Ш.Т., Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини шакллантириш. Монография. – Тошкент: 2013. 34-б.

² Болтаева Ш.Т., Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини шакллантириш, Монография, Тошкент 2013 й.25-б.

Xulosa. Mazkur mezonlar asosida boshlang'ich ta'limdi ijodiy faoliyatni tashkil etish mezonlariga mos quyidagi darajalar aniqlandi: reproduktiv, izlanishli-evristik, ijodiy-tashabbuskorlik. Reproduktiv daraja bilishga qiziqishning pastligi, o'quv jarayoniga ichki qiziqishning mavjud emasligi, ijodiy vazifalarni hal etishda irodaviy xususiyatlarning yetarli ifoda etilmasligi, o'qituvchi rahbarligida harakatlanish layoqati bilan tavsiflanadi. Izlanishli-evristik darajada bilishga qiziqish o'quv motivatsiyasi tuzilmasida o'rtacha o'rinni egallaydi. Barqaror bilishga qiziqish, savollar tuza olish, o'qituvchiga fikr-mulohaza bilan murojaat qilish ko'nikmalariga egalikni o'zida aks ettiradi. Ijodiy-tashabbuskor darajada bilishga qiziqish, o'quv-bilish topshiriqlarini hal etish istagi yuqori tarzda namoyon bo'ladi. O'z-o'zidan qoniqish va quvonch hisini uyg'otuvchi natijalarga erishishda qat'iylik va jur'atlilik bilan ajralib turadi. Faollik, tashabbuskorlik va mustaqillik muntazam namoyon bo'ladi. Bilimlarni o'zlashtirish ijodiy tavsifga ega.

Demak, o'yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib, u orqali kichik maktab yoshdag'i o'quvchilar hayotni, borliqni, tevarak- atrofnı o'rganadilar va unga moslashadilar. O'yin paydo bo'lishi uchun quydagilar muhim sanaladi:

- o'yin ishtirokchilari bilan bo'lgan muloqtdan qoniqish hissining paydo bo'lishi;
- tabiiylik, emotsiyal hissiyorning vujudga kelishi;
- o'yin davomida o'quvchilarning o'zining tabiiy extiyojlarini qondirishga harakat qilishi va hokazolardir.

Ijtimoiy-psixologik ahamiyati jihatidan o'yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi;

- ma'lum ijtimoiy bilimlarni egallash;
- zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish.

Shuningdek, muammo nuqtai nazardan yondashganda, o'yinlar o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobilyatini o'stiradi. Ma'lumki, bolalar o'yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglilik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy-psixologik tavsifga ega o'yinlardan o'quv jarayonida foydalanish, shashubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limdi birlamchi vazifa keyingi ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshlang'ich umumiyligi ta'lim malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712-сон Фармони. – Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.
2. Болтаева Ш.Т., Бошланғич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини шакллантириш. Монография. – Тошкент: 2013. - 189-6.
3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – М.: 1969. - 248 с.
4. Лейтес Н.С. Склонности одаренность в детские годы // Знание, 1984, №4.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология // под ред. В.В.Давыдова. - М.: Педагогика, 1999.- 321 с.
6. Левитов Н.Д. Субъект. Объект. Познание.- М.: Знание, 1999. - 198 с.
7. Нишаналиев У. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. – Т.: Фан, 1990. – 216 с.
8. Ҳасанбоева О., Ҳасанбоев Ж. ва б.қ. Педагогика. – Т.: Фан, 2006. - 282 б.
9. Хуррамов Р. (2022). Оғзаки машқлар ёрдамида бошланғич синф ўқувчилари эвристик фикрлашини ривожлантиришнинг методик асослари. "Ta'lim va innovatsion tadqiqot". <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.022>